

**UMUMIY O‘RTA TA‘LIM TIZIMIDA TASVIRIY SAN‘AT O‘QUV  
FANINI O‘QITISHNING AHAMIYATI  
( xorijiy va maxalliy tajribalar)**

***Xudoyberdiyev Mirolim***

*A.Qodiriy nomidagi JDPI, Tasviriy san‘at va muhandislik grafikasi  
kafedrası o‘qituvchisi, Jizzax, O‘zbekiston  
e-mail: xudoyberdiyevmirolim@gmail.com*

***Annotatsiya.** Badiiy ta‘limning xorijiy tajribalari shundan dalolat beradiki, aynan rivojlangan mamlakatlarda o‘quvchilarning badiiy-estetik tarbiyasi borasida ibratli ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Bir qator yuksak taraqqiy etgan mamlakatlarda Tasviriy san‘at o‘quv fani turli nomlarda o‘qitiladi. Bu tajribalar YUNESKO tomonidan ma‘qullangan holda dunyo mamlakatlarida badiiy-estetik ta‘lim va tarbiya, jumladan, Tasviriy san‘atni o‘qitishning o‘ziga xos xususiyatlarini, unda milliy ahamiyatga molik hamda xalqaro miqyosda qo‘llanishi maqsadga muvofiq bo‘lgan strategiyalarni aniqlash, badiiy-estetik ta‘limning milliy tizimlarini rivojlantirish istiqbollari belgilash masalalari ilgari surilmoqda.*

***Kalit so‘zlar:** san‘at, badiiy akademiya, tajriba, pedagogika, kompetensiya.*

\*\*\*

***Annotation.** Foreign experience of art education shows that in developed countries, exemplary work is being done in the field of art and aesthetic education of students. In a number of developed countries, the subject of "Fine Arts" is taught under different names. These experiments were approved by UNESCO, and the art and aesthetic education and upbringing in the countries of the world, including "Specific features of teaching fine arts, in which it is expedient to apply nationally and internationally. identification of strategies, prospects for the development of national systems of art and aesthetic education.*

***Key words:** arts, art akademiya, experience, pedagogy, competence.*

Tasviriy san‘at o‘quv fanining amaldagi konsepsiyasi yaratilganidan buyon respublikamiz badiiy ta‘lim tizimida keng hajmdagi islohotlar amalga oshirildi. Ayniqsa, O‘zbekiston Badiiy akademiyasi tashkil etilganidan (1997 yil) buyon mamlakatimizda badiiy ta‘limning yangi tizimi tasviriy san‘at sohasida ko‘plab ishlari amalga oshirmoqda. Uning tarkibidagi ixtisoslashtirilgan san‘at maktablari, maktab-internatlar, kasb-hunar kollejlari hamda Milliy rassomlik va dizayn institutida badiiy ta‘lim mazmuni va metodikasida xorijiy tajribalarni milliy badiiy an‘analar, tarixiy tajribalarni zamonaviy yondashuvlar bilan integratsiyalashtirgan holda amalga oshirish tajribasi qo‘llanilmoqda. Bu ijobiy tajribalar umumiy o‘rta ta‘lim maktablari tizimidagi Tasviriy san‘at o‘quv fanini o‘qitilishida ham qo‘llanilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008 yil 8 iyulda qabul qilingan “Bolalar musiqa va san‘at maktablarining moddiy-texnika bazasini

mustahkamlash va ularning faoliyatini yanada yaxshilash bo'yicha 2008-2014-yillarga mo'ljallangan Davlat dasturi to'g'risidagi qarori, birinchidan, respublikamizda badiiy ta'limni rivojlantirishni yanada yuqoriroq sifat pog'onasiga ko'tarish uchun qulay sharoit yaratdi. Ikkinchidan, maktabdan tashqari ta'lim muassasalarida tasviriy va amaliy san'atni o'qitish amaliyoti yangi shakl va mazmun kasb eta boshladi. Shuningdek, maktabdan tashqari ta'lim muassasalarining maqomini o'zgarishi munosabati bilan qo'shimcha tarzda berilayotgan badiiy ta'limning ijtimoiy ahamiyati yangicha mohiyat kasb eta boshladi. Bu tajribadan kelib chiqiladigan xulosalar, ijobiy holatlar umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qitiladigan Tasviriy san'at o'quv fanini o'qitish amaliyotiga ham tatbiq etilishi lozim. Zero, umumiy o'rta ta'lim maktablarida tasviriy san'at darslari hamda darsdan tashqari ta'lim muassasalarida amalga oshirilayotgan badiiy-estetik ta'lim bilan mantiqiy aloqadorlikda o'qitilishiga yangicha yondashuvni taqazo etadi.

Badiiy ta'limning xorijiy tajribalari shundan dalolat beradiki, aynan rivojlangan mamlakatlarda o'quvchilarning badiiy-estetik tarbiyasi borasida ibratli ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. Buni, birinchi navbatda, o'quv fanini umumta'lim fanlari tizimidagi salmog'ida ko'rish mumkin. Xususan, bir qator yuksak taraqqiy etgan mamlakatlarda Tasviriy san'at o'quv fani turli nomlarda haftasiga 2 soatdan 5 soatgacha miqdorda o'qitiladi. Bu tajribalar YUNESKO tomonidan ma'qullangan holda dunyo mamlakatlarida badiiy-estetik ta'lim va tarbiya, jumladan, Tasviriy san'atni o'qitishning o'ziga xos xususiyatlarini, unda milliy ahamiyatga molik hamda xalqaro miqyosda qo'llanishi maqsadga muvofiq bo'lgan strategiyalarni aniqlash, badiiy-estetik ta'limning milliy tizimlarini rivojlantirish istiqbollari belgilash masalalari ilgari surilmoqda. Bu tajribalardan kelib chiqqan holda e'tirof etish joizki, jahon tajribasidagi badiiy ta'lim, jumladan, o'quvchilarning ijodkorlik qobiliyatlarini tarkib toptirish va rivojlantirish bilan bir qatorda milliy tasviriy va amaliy san'atimiz, milliy hunarmandchilikka oid o'quv materiallari Tasviriy san'at o'quv fanining mazmunida asosiy o'rinni egallashi lozim.

Badiiy ta'lim va tarbiya borasida keyingi o'n yillikda olib borilgan tadqiqotlarning xorijiy tajribalari ustuvor tarzda bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini pedagogik faoliyatga tayyorlash masalalariga bag'ishlanganligini ko'rsatmoqda. Jumladan, bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini tayyorlashga jarayonli yondashuv, jarayonlarning konseptual-metodologik asoslari, uning modeli, jarayonli yondashuvni pedagogik fenomen sifatidagi tahlili (A.G.Porovskiy, 2010); pedagogika oliy o'quv yurtlarida tasviriy san'at o'qituvchilarini tayyorlashni optimallashtirish (F.F.Banduristiy, 2004); xalq pedagogikasi vositasida bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarida ijodiy tafakkurni

rivojlantirish (A.A.Gerasimova, 2007); bu jarayonda milliy an'analardan foydalanish (O.M. Batchaev, 1996); tasviriy san'at o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida innovatsion va axborot texnologiyalaridan foydalanish, o'qituvchining professional kompetensiyasini shakllantirishning nazariy-metodologik asoslari (O.M. Gushchina. 2003), shuningdek, amaliyotchi o'qituvchilarning malaka oshirish, qayta tayyorlash, metodik markazlar faoliyati misolida kasbiy kompetensiyalarini oshirish masalalari tadqiq etilgan. Tahlil etilgan manbalardan ko'rinadiki, ularning yakuniy natijalari ma'lum ma'noda maktab ta'limi tizimidagi Tasviriy san'at o'quv fani bo'yicha ta'lim jarayonini takomillashtirish omili sifatida e'tirof etilishi mumkin bo'lsa-da, bevosita umumiy o'rta ta'lim maktablari tasviriy san'at ta'limi sifati va samaradorligini oshirishning didaktik imkoniyatlarini tadqiq qilishga oid maxsus tadqiqotlar amalga oshirilmagan. Aslida maktab ta'limida tasviriy san'at ta'limi sifati va samaradorligini oshirish nafaqat badiiy ta'lim tizimi uchun, balki umuman kadrlar tayyorlash tizimi uchun ahamiyatli hisoblanadi, ya'ni o'quvchilarda tasviriy savodxonlik elementlarini tarkib toptirish bo'lajak mutaxassisning kasbidan qat'iy nazar o'z professional faoliyatiga ijodkorlik bilan yondashish malakalarini shakllantiradi. Zero, tasviriy san'at darslarida egallangan malakalar buyumlarning spetsifik parametrlari - ularning shakli, konstruktiv tuzilishi, rangi, materiali, fakturasi, nisbatlari, tejamkorlik va eng muhimi, estetik parametrlari va ularning mutanosibliigi haqidagi qonuniyatlar - nazariy bilimlar va amaliy malakalar, asosan, tasviriy san'at darslarida tarkib toptiriladi.

Pedagogika va psixologiya, xususiyl metodika fanlarining ilmiyl xulosalari hamda ta'lim tarixi, uning zamonaviyl sharoitda rivojlanish tendensiyalarining tahliliga asosan ta'kidlash mumkinki, tasviriy san'at darslari o'quvchilarda borliqdagi va san'atdagi go'zalliklarni ko'ra bilish va undan estetik zavq olish malakalarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega bo'libgina qolmay, balki ijodkor shaxsni tarbiyalash omili hamdir. Ayniqsa, inson va tabiat munosabatlari xalqaro miqyosdagi global muammoga aylanib borayotgan bir davrda o'quvchilarni tabiat go'zalliklarini estetik idrok etish, uni o'zlarining ijodiy faoliyatlarida tasvirlashga, atrof-muhitning go'zalligi va boyligini asrab-avaylashga o'rgatish ularni nafaqat badiiy-estetik tarbiyalash, balki ona tabiatga muhabbat ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi. Tasviriy va amaliyl san'at, badiiy hunarmandchilik, me'morlik va dizayn san'ati asarlari namunalarini o'rganish o'quvchilarni badiiy madaniyatimiz durdonalaridan baxramand qiladi, ularga xalqimiz tarixi, turmush tarzini chuqurroq bilib olish imkoniyatini beradi. Bu ta'limiy va tarbiyaviyl imkoniyat o'quvchilarni vatanga, uning milliy tarixi va badiiy an'alariga hurmat va sadoqat ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi. Badiiy madaniyat va ijodkorlik har bir shaxs uchun u qanday kasb egasi

bo'lishidan qat'i nazar faoliyatga ijodiy yondashishi uchun zarurdir. Shu tariqa maktab ta'limida tasviriy san'at darslarida amalga oshiriladigan badiiy-estetik ta'lim bilan bir qatorda o'quvchilarning insonparvarlik ruhida tarbiyalash borasida ham keng imkoniyatlar yaratiladi. Buning uchun tasviriy va amaliy san'at, badiiy hunarmandchilik, me'morlik va dizayn san'ati bo'yicha tarixiy mumtoz namunalari bilan birga zamonaviy san'at asarlarini o'rganib borishni ta'minlash, bu borada umuminsoniy va milliy san'at namunalari sintetik tarzda optimal nisbatlar asosida o'rganilish lozim.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sulaymonova Z. Kitobat san'ati. O'quv qo'llanma. Toshkent. Ilm-Ziyo, 2016. 96 b.
2. Kamoliddin Behzod. Albom. Tuzuvchilar: E.Ismoshyuva, Z.Rahimova. Toshkent. "San'at" nashriyoti, 2000. 40 b.
3. Madraimov A. O'zbekiston miniatyura san'atini o'rganish muammolari. Jurnal. "San'at". 2015, 2-son. B. 25-27
4. Ortiqova, O. (2021). AMALIY MASHG'ULOTLARNI ZAMON TALABI ASOSIDA TASHKIL QILISH. *Физико-технологического образование*, 4(4).
5. Шарипов, Ш. С. (2017). Personality model of modern teacher. *Eastern european Scientific Journal–Germany*, 93-96.
6. Шарипов, Ш. С. (2000). Педагогические условия формирования изобразительского творчества студентов (на примере факультетов Труда и профессионального образования)
7. Orishev, Jamshid (2021) "PROJECT FOR TRAINING PROFESSIONAL SKILLS FOR FUTURE TEACHERS OF TECHNOLOGICAL EDUCATION," *Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal: Vol. 2021 : Iss. 2 , Article 16.*
8. Тагаев, Х., Убайдуллаев, С., Алкаров, К. Х., & Оришев, Ж. Б. (2016). ПОВЫШЕНИЕ ПАТЕНТНЫХ ЗНАНИЙ В ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ. In *Современные тенденции развития аграрного комплекса* (pp. 1776-1780).
9. Алкаров, Қ. Х., Ибрагимов, А. Р., & Пардаев, Б. А. (2019). ТЎГАРАК АЪЗОЛАРИНИ ИЖОДКОРЛИК ФАОЛИЯТГА ТАЙЁРЛАШНИНГ ТАРКИБИЙ ҚИСМЛАРИ ВА БОСҚИЧЛАРИ. *Интернаука*, (20-3), 51-52.
10. Alqorov, Q. (2020). Мухандислик таълимида талабалар техник ижодкорлик қобилияти ривожлантириш технологияси. *Архив Научных Публикаций JSPI.*
11. Тагаев, Х., Алкаров, К. Х., Каримов, О. О., & Юлдашев, М. (2019). Педагогические основы обеспечения стабильности роста и развития

системы научно-технического творчества студентов (Модель "Руководитель – Участник - Творческая деятельность"). *Поволжский педагогический поиск*, (2), 112-119.

12. Тагаев, Х., Алкаров, К. Х., Артикова, О. Ш., & Мамаджанова, К. А. (2016). ПАТЕНТ-КАК ЯДРО И СТРАТЕГИЧЕСКИЙ ШАГ ВПЕРЕД К НОВЫМ ВЫСОТАМ ТЕХНИЧЕСКОЙ И ИНЖЕНЕРНОЙ МЫСЛИ. In *Современные тенденции развития аграрного комплекса* (pp. 1773-1776).

13. Худойберdiyev, P. (2020). TASVIRIY SAN'ATDAN AMALIY MASHG'ULOTLAR BAJARISH JARAYONIDA TALABALARNI AMALIY PYERSPEKTIVADAN FOYDALANISHGA O'RGATISH. *Science and Education*, 1(8).

14. Худойберdiyev, P. (2021). RANGTASVIR TARAQQIYOTINING USTUVOR YO 'NALISHLARI. *Журнал музыки и искусства*, 2(2).

15. Худойберdiyev, P. (2020). TASVIRIY SAN'AT DARSLARIDA FAOLIYAT TURLARI ALOQADORLIGI ASOSIDA TA'LIM SIFATI VA SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING METODIK ASOSLARI. *Журнал музыки и искусства*, 1(1).

16. Худойберdiyev, P. (2020). European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences: European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. *Архив Научных Публикаций JSPI*.